



## SARKARDAGA MADAD BERGAN TULPORLAR VA AMIR TEMUR DAVRIDA UNING AHAMIYATI

*“Shahrisabz” davlat muzeyi qo‘riqxonasi*

*Katta ilmiy xodimi **Sohiba Ochilova***

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Markaziy Osiyo xalqlari tarixida otlarning tutgan o‘rni, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va harbiy hayotdagi ahamiyati ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Ayniqsa, buyuk sarkarda Amir Temur davrida otlardan foydalanish, harbiy yurishlardagi ahamiyati, otchilik madaniyati va zotdor otlarni ko‘paytirish siyosati yoritiladi. Shuningdek, arxeologik topilmalar, xalq og‘zaki ijodi va yozma manbalar asosida Markaziy Osiyoda otchilik an‘analarining shakllanishi va rivojlanishi ko‘rsatib beriladi. Maqolada Farg‘ona otlarining tarixiy ahamiyati, Xitoy manbalaridagi ma‘lumotlar ham tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** otchilik, tulpor, Amir Temur, Markaziy Osiyo, Farg‘ona otlari, harbiy yurishlar, chavandozlik, xalq og‘zaki ijodi, tarixiy manbalar, arxeologiya.

**Аннотация:** В данной статье на основе научных источников анализируется роль лошадей в истории народов Центральной Азии, а также их значение в социально-экономической и военной жизни. Особое внимание уделяется использованию лошадей в период правления великого полководца Амира Темура, их роли в военных походах, развитию коневодческой культуры и политике разведения породистых лошадей. Кроме того, на основе археологических находок, устного народного творчества и письменных источников рассматриваются процессы формирования и развития традиций коневодства в Центральной Азии. В статье также анализируется историческое значение ферганских лошадей и сведения о них в китайских письменных источниках.

**Ключевые слова:** коневодство, тулпар, Амир Темур, Центральная Азия, ферганские лошади, военные походы, наездничество, устное народное творчество, исторические источники, археология.



**Abstract:** *This article analyzes the role of horses in the history of the peoples of Central Asia and their importance in social, economic, and military life based on scientific sources. Particular attention is paid to the use of horses during the reign of the great commander Amir Temur, their role in military campaigns, the development of horse-breeding culture, and the policy of breeding thoroughbred horses. In addition, the formation and development of horse-breeding traditions in Central Asia are examined based on archaeological findings, oral folklore, and written sources. The article also analyzes the historical significance of Ferghana horses and the information about them found in Chinese written sources.*

**Keywords:** *horse breeding, tulpar, Amir Temur, Central Asia, Ferghana horses, military campaigns, horsemanship, oral folklore, historical sources, archaeology.*

## **Kirish**

Otlar insoniyat tarixida eng qadimiy va muhim hayvonlardan biri hisoblanadi. Arxeologik va tarixiy manbalarga ko'ra, otlar miloddan avvalgi III ming yillikda qo'lga o'rgatilgan. Shu davrdan boshlab ular inson hayotida transport vositasi, harbiy kuch, savdo-sotiq va madaniy hayotning muhim qismiga aylangan. Markaziy Osiyo hududi otchilik madaniyati shakllangan eng qadimiy mintaqalardan biri hisoblanadi. Bu hududda yashagan xalqlar uchun ot faqatgina harakat vositasi emas, balki turmush tarzi, harbiy san'at va madaniyatning ajralmas qismi bo'lgan. O'zbek xalq og'zaki ijodida ham otlar alohida o'rin egallaydi. Masalan, "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Intizor" kabi epik dostonlarda tulporlar qahramonlarning ishonchli hamrohi sifatida tasvirlangan. Alpomishning Boychibori, Go'ro'g'lining G'irko'ki kabi tulporlar xalq xotirasida jasorat va sadoqat ramzi sifatida saqlanib qolgan.

Markaziy Osiyoda otchilikning shakllanishida, arxeologik manbalarga ko'ra, bronza davridan boshlab otlar Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin tuta boshlagan. Dastlabki davrlarda otlardan asosan zodagonlar va hukmdorlar foydalangan. Ilk temir davridan boshlab esa otlardan keng ko'lamda foydalanish boshlangan. Bu davrda otlar harbiy yurishlarda, savdo karvonlarida va chorvachilikda muhim ahamiyat kasb etgan. Markaziy Osiyo



arxeologik yodgorliklarida otchilik madaniyatiga oid ko'plab topilmalar uchraydi. Masalan, Qashqadaryo viloyatidagi Yerqo'rg'on yodgorligidan milodiy I–V asrlarga oid chavandozlar va otlarning sopol haykalchalari topilgan. Shuningdek, qoyatosh rasmlarida ham otlar va chavandozlar tasvirlangan. Bu tasvirlar mintaqada otchilik madaniyatining yuqori darajada rivojlanganligidan dalolat beradi.

Xalq og'zaki ijodida otlar obrazi: Markaziy Osiyo xalqlarining epik dostonlarida otlar alohida o'rin egallaydi. Qahramonlar o'z tulporlari bilan bir butun obraz sifatida tasvirlanadi.

Masalan:

- Alpomish — Boychibor
- Go'ro'g'li — G'irko'k
- Jaloliddin Manguberdi — Saman ot
- Iskandar Makedonskiy — Busefal

Bu misollar otlarning faqat hayvon emas, balki qahramonning eng ishonchli hamrohi sifatida qaralganini ko'rsatadi. Xalq orasida otga nisbatan turli urf-odat va e'tiqodlar ham mavjud bo'lgan. Masalan, ba'zi joylarda otning taqasi ostonaga qoqib qo'yilgan. Bu uyni yomon kuchlardan himoya qiladi, deb ishonilgan.

Farg'ona tulporlari va Xitoy manbalari: Qadimgi Xitoy manbalarida Farg'ona vodiysida yetishtirilgan otlar juda mashhur bo'lgan. Ular "osmon otlari" yoki "uchar otlar" deb ta'riflangan. Miloddan avvalgi II asrda Xitoy elchisi Chjan Syan Davon davlatiga yuborilgan. Uning maqsadi Farg'ona tulporlarini qo'lga kiritish edi. Xitoyliklar Farg'onadan beda urug'i, uzum, anor va boshqa mahsulotlarni olib ketishgan. Ammo otlarni osonlikcha qo'lga kirita olmagan. Keyinchalik ular Davon davlatiga qarshi harbiy yurish uyushtirgan. Ershi shahri qamal qilingan. Natijada turkiylar ba'zi otlarni berishga majbur bo'lgan. Bu voqealar Farg'ona otlarining qadimdayoq jahon miqyosida mashhur bo'lganini ko'rsatadi.

Amir Temur saltanati davrida otlar harbiy tizimning asosiy qismi hisoblangan. Temur qo'shinlarining asosiy qismini otliq askarlar tashkil etgan. Temur yaxshi otni o'nta novkarga almashtirmagan, deb ta'riflanadi. Bu esa sarkardaning otlarga qanday katta ahamiyat berganini ko'rsatadi. Temur



qo'shinlarida har bir askar kamida ikki otga ega bo'lgan. Bu esa qo'shinlarning tez harakatlanishini ta'minlagan. Yuqori lavozimdagi amirlar esa yuzlab otlarga ega bo'lgan:

- o'nboshi — 5 ta
- yuzboshi — 10 ta
- birinchi amir — 110 ta
- ikkinchi amir — 120 ta
- uchinchi amir — 130 ta
- to'rtinchi amir — 140 ta

Bu tizim Temur armiyasining yuqori harakatchanligini ta'minlagan.

Amir Temur otchilikni davlat siyosati darajasiga ko'targan. U zabt etilgan hududlarda ham ot zotlarini yaxshilashga katta e'tibor bergan. 1399 yilda Hindiston zabt etilgandan keyin Dehli shahrida yuz ming ot boqiladigan maxsus qo'riqxonaga tashkil etilgan. Sohibqironning shaxsiy tulporlari Qashqadaryo vohasidagi Chiroqchi va Kitob yaylovlarida parvarishlangan. Temur davrida yo'llar bo'ylab maxsus otxonalar barpo etilgan. Bu yerlarda safarga chiquvchilar uchun tayyor otlar saqlangan. Ispan elchisi Klavixxo o'z sayohatnomasida bu tizim haqida shunday yozadi: Samarqandga olib boruvchi yo'llar bo'ylab yuzlab otlar tayyor holda saqlangan. Otchilik faqat harbiy sohada emas, balki madaniy hayotda ham muhim o'rin tutgan. Chavandozlik musobaqalari, ot poygalari va milliy o'yinlar xalq hayotining ajralmas qismi bo'lgan. Markaziy Osiyo xalqlarida otga nisbatan alohida hurmat shakllangan. Ot insonning do'sti, hamrohi va sadoqat ramzi sifatida qaralgan.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo xalqlari tarixida otchilik madaniyati muhim o'rin egallaydi. Arxeologik topilmalar, xalq og'zaki ijodi va yozma manbalar bu hududda otchilik an'analari qadimdan rivojlanganini ko'rsatadi.

Ayniqsa, Amir Temur davrida otlar davlat harbiy qudratining asosiy omillaridan biriga aylangan. Temur qo'shinlarining muvaffaqiyatli yurishlari ko'p jihatdan otlarning chidamliligi va tezligi bilan bog'liq bo'lgan.

Shu bois, otchilik Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти, 1996.
2. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Тошкент: Шарқ нашриёти, 1997.
3. Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга саёҳат кундалиги (1403–1406). – Тошкент: Фан, 1990.
4. Бартольд В.В. Туркистон тарихи. – Тошкент: Шарқ, 1997.
5. Асқаров А. Ўзбекистон тарихи (қадимги даврлардан ўрта асрларгача). – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2000–2005.
7. Ртвеладзе Э.В. Марказий Осиё цивилизацияси тарихи. – Тошкент: Университет, 2005.
8. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Университет, 2004.
9. Толстов С.П. Қадимги Хоразм цивилизацияси. – Москва: Наука, 1948.
10. Археологик тадқиқотлар тўплами. – Тошкент: Фан, 2010.